

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI**  
**ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI JIZZAX DAVLAT**  
**PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**PEDAGOGIKA – PSIXOLOGIYA FAKUL'TETI**  
**MAKTABGACHA TA'LIM NAZARIYASI VA USLUBIYATI KAFEDRASI**

“Himoya qilishga ruxsat beraman”  
Pedagogika-psixologiya fakulteti dekani  
\_\_\_\_\_ prof.X.A.Meliyev  
“ 30 ” 05 2013 y.

**5141700 – Maktabgacha ta'lim va bolalar sporti yo'nalishi bo'yicha bakalavr darajasini olish uchun**

**“O'RTA GURUH BOLALARINI O'Z-O'ZIGA HIZMAT KO'RSATISH MALAKALARINI SHAKLLANTIRISH” MAVZUSIDA BAJARILGAN**

# **BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**Bajaruvchi:** Karimova Nigora Kurbanovna  
**Ilmiy rahbar:** dots.B.Soatov

**Ishni himoyaga tavsiya etaman** \_\_\_\_\_ dots.B.Soatov  
(imzo)

BMI Maktabgacha ta'lim nazariyasi va uslubiyati kafedrası yig'ilishining qarori bilan (Qaror№10, 25.05.2013 y) himoyaga tavsiya etilgan.

**Kafedra mudiri:** \_\_\_\_\_ dots.R.Abdurasulov  
(imzo)

**JIZZAX – 2013**

**A.Qodiriy nomli Jizzax Davlat pedagogika instituti “Pedagogika -psixologiya”  
fakul’teti “Maktabgacha ta’lim va bolalar sporti” yo’nalishi talabasi  
Karimova Nigora Kurbanovnaning “O’rta gurux bolalarini o’z-o’ziga xizmat  
ko’rsatish malakalarini shakllantirish ” mavzusidagi  
bitiruv malakaviy ishiga**

## **T A Q R I Z**

O‘zbekiston mustaqillikka erishgan dastlabki kunlaridan boshlab har tomonlama sog‘lom va barkamol avlodni voyaga yetkazish ularni ijtimoiy muhofaza etishni kuchaytirishni bolalarni har tomonlama kamol toptirish hamda ularni umumbashariy qadriyatlar ruhida tarbiyalash muammolari davlat siyosatining ustivor vazifalaridan biriga aylanib bormoqda.

Bitiruv malakaviy ishi 2 bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat.

Bitiruv malakaviy ishining 1 bobida o’rta guruh bolalarini o’z- o’ziga xizmat ko’rsatish malakalarini shakllantirish ochib berilgan.

Bitiruv malakaviy ishi 2 bobida maktabgacha yoshdagi bolalarni o’z- o’ziga xizmat qilishga o’rgatishning shakllari batafsil yoritilgan bo’lib o’rta guruh bolalarini o’z-o’ziga xizmat qilishini tashkil etish batafsil yoritilgan. Tajriba – sinov ishlari natijalari va tahlili, umumiy xulosalar va tavsiyalar berilgan. Ish mazmunan yakunlangan.

Bitiruv malakaviy ishi davlat ta'lim standartlari talablariga mos keladi. Ishdagi ba'zi kamchiliklar ish mazmuniga ta'sir qilmaydi.

Bitiruv malakaviy ishini ijobiy deb baholayman va ishni Davlat Attestatsiya xayati huzurida himoya qilishga tavsiya etaman.

**Jizzax tuman №3- sonli**

**“G’uncha” MTM mudirasi:**

*U. IKROMOVA*

**A.Qodiriy nomli Jizzax Davlat pedagogika instituti “Pedagogika -psixologiya”  
fakul’teti “Maktabgacha ta’lim va bolalar sporti” yo’nalishi talabasi  
Karimova Nigora Kurbanovnaning “O’rta gurux bolalarini o’z-o’ziga xizmat  
ko’rsatish malakalarini shakllantirish ” mavzusidagi  
bitiruv malakaviy ishiga**

## **T A Q R I Z**

Mustaqillik jamyatimizning faqatgina ta'lim sohasida emas balki tarbiya sohasida ham o'z aksini topmoqda. Bunda bizdan so'raladigan birgina sharti faravon hayot kechirish uchun mehnat qilish va boshqalar mehnatini qadrlay olishimiz hisoblanadi. Mehnat inson hayotining uning faravon turmush kechirishi uchun asos bo'lib kelgan va shunday bolib qoladi.

Bolani mehnatsevralik ruhida terbiyalashni o'z oldimizga maqsad qilib qo'yar ekanmiz, anashu maqsadlardan kelib chiqib talaba Karimova Nigora Kurbanovnaning “O’rta gurux bolalarini o’z-o’ziga xizmat ko’rsatish malakalarini shakllantirish ” BMI mavzusi bugungi kunning dolzarb masalalarini ochib berishga qaratilgan.

Bitiruv malakaviy ishi 2 bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatidan iborat. Bitiruv malakaviy ishining kirish qismida mavzuning dolzarbligi ,maqsad vazifalari,predmeti,ob’ekti ilmiy tadqiqot metodlari,metodologik asoslari,ilmiy yangiligi ochib berilgan. Tajriba –sinov ishlari natijalari va tahlili, umumiy xulosalar va tavsiyalar berilgan. Ish mazmunan yakunlangan Bitiruv malakaviy ishi davlat ta'lim standartlari talablariga mos keladi. Ishdagi ba'zi kamchiliklar ish mazmuniga ta'sir qilmaydi.

Bitiruv malakaviy ishini ijobiy deb baholayman va ishni Davlat Attestatsiya xayati huzurida himoya qilishga tavsiya etaman.

**Maktabgacha ta’lim nazariyasi va  
metodikasi kafedra katta o’qituvchisi:**

**G.Qo’shaqova**

**A.Qodiriy nomli Jizzax Davlat pedagogika instituti “Pedagogika -psixologiya”  
fakul’teti “Maktabgacha ta’lim va bolalar sporti” yo’nalishi talabasi  
Karimova Nigora Kurbanovnaning “O’rta gurux bolalarini o’z-o’ziga xizmat  
ko’rsatish malakalarini shakllantirish ” mavzusidagi  
bitiruv malakaviy ishiga imiy raxbar**

## *XULOSASI*

Bolalarni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash va ularni yetuk barkamol ma’suliyatli shaxs qilib yetishtirish borasida, jahon madaiyati uchun katta hissa qo’shgan va o’zlarining boy ma’naviy merosini qoldirgan buyuk allomalarimiz Abu Nasr Farobiy, Ibn Sino, Yusuf Xos Xodib, Mahmud Qashg’ariy, Jomiy kabi mutafakkirlarimiz hamda g’arb pedagoglari Pestalossi, Yan Amos Komenskiy, Ushinskiylar o’zlarining qimmatli fikrlarini bayon etganlar. Anashu qimmaktli fikrlarga tayangan holda talaba Karimova Nigora Kurbanovnaning “O’rta gurux bolalarini o’z-o’ziga xizmat ko’rsatish malakalarini shakllantirish ” deb tanlagan mavzusi maktabgacha yoshdagi bolalarni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash yo’llarini ochib berishga qaratilgan.

Bitiruv malakaviy ishi 2 bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatidan iborat. Bitiruv malakaviy ishining 1 bobida o’rta gurux bolalarini o’z o’ziga xizmat ko’rsatish malakalarini shakllantirish asoslari ochib berilgan bo’lib bolalarni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashning mazmuni va vazifalari yoritilgan.

Bitiruv malakaviy ishi 2 bobida maktabgacha yoshdagi bolalarni o’z-o’ziga xizmat qilishga o’rgatishning shakllari batafsil yoritilgan bo’lib o’rta gurux bolalarini o’z-o’ziga xizmat qilishini tashkil etish batafsil bayon qilingan. Bitiruv malakaviy ishi davlat ta’lim standartlari talablariga mos keladi. Ishdagi ba’zi kamchiliklar ish mazmuniga ta’sir qilmaydi. Bitiruv malakaviy ishini ijobiy deb baholayman va ishni Davlat Attestatsiya xayati huzurida himoya qilishga tavsiya etaman.

**Ilmiy rahbar:**

**Dots. B.Soatov**

# *M U N D A R I J A:*

KIRISH.....

**I. BOB. O’RTA GURUH BOLALARINI O’Z O’ZIGA XIZMAT KO’RSATISH MALAKALARINI SHAKLLANTIRISH ASOSLARI.**

1.1. Maktabgacha yoshdagi bolalarni mehnat tarbiyasi tarbiyasi xaqida sharq va g’arb mutafakkir olimlarinig fikrlari.....

1.2. O’rta guruh bolalari mehnatini tashkil etish tashkil etish mazmuni.....

**II. BOB. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI O’Z-O’ZIGA XIZMAT QILISHGA O’RGATISHNING SHAKLLARI.**

2.1. O’rta guruh bolalarini o’z-o’ziga xizmat qilishini tashkil etish. ....

2.2. Bolalarni o’z-o’ziga xizmat qilishga o’rgatishda tarbiyachi faoliyati hamda oilaning o’rnini o’rganish.(tajriba sinov ishlari).....

**XULOSALAR.....**

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI.....**

## KIRISH

Mustaqillik jamyatimizning faqatgina ta'lim sohasida emas balki tarbiya sohasida ham o'z aksini topmoqda. Bunda bizdan so'raladigan birgina sharti farovon hayot kechirish uchun mehnat qilish va boshqalar mehnatini qadrlay olishimiz hisoblanadi. Mehnat inson hayotining uning farovon turmush kechirishi uchun asos bo'lib kelgan va shunday bolib qoladi.

I. A. Karimov o'zining "Yuksak ma'naviyat engilmas kuch" asarida shunday yozadi: "Ko'p yillik ilmiy izlanish va tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, inson o'z umri davomida oladigan barcha informasiyani 70 foizini 5 yoshgacha bo'lgan davrda olar ekan. Bola ongi asosan 5-7 yoshgacha shakllanishini inobatga oladigan bo'lsak, aynan ana shu davrda uning qalbida oiladagi muxit ta'sirida ma'naviyatning ilk kurtaklari namoyon bo'la boshlaydi. Xalqimizning "qush uyasida ko'rganini qilar" degan dono maqoli o'ylaymanki mana shu azaliy xaqiqatni aks ettiradi", deb bayon etgan". Demak bolani yoshligidan nimaga o'rgatsak shu asosda shakllanadi. Shu o'rinda bunda albatta ota ona va tarbiyachilar katta axamiyat kasb etishini unutmasligimiz kerak. Masalan bolani yoshligidan ota ona va tarbiyachi mehnatga o'rgatib borishi lozim.

Ota-bobolarimiz asrlar davomida mehnatni ulug'lab kelishgan, o'zlari sidqidildan mehnat qilishgan. Bizga ulardan meros bo'lib qolgan barcha xazinalar- ilmiy badiiy kitoblar, turli hildagi san'at asarlari, me'morchilik obidalari va boshqa narsalar ana shu mehnatning mahsulidir. Jahon fani rivojiga bebaho hissa qo'shgan Al-Xorazmiy, Ibn Sino, Ismoil Buxoriy, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Zahridin Muhammad Bobur sigari

bobokolonlarimiz mehnatsevarliklari tufayli ulkan yutuqlarni qo'lga kiritishgan yoshlarni ham mehnatni sevishtga, mehnatsevar bo'lishga chaqirishgan. Shu boisdan, jahondagi barcha xalqlarning maqollarida bo'lgani kabi, o'zbek maqollarida ham mehnatsevarlik g'oyasi markaziy o'rinlardan birini egallaydi. „Suvsiz hayot bo'lmas, mehnatsiz rohat“, „Mehnat qilsang yasharsan, katta -katta osharsan“, „Oltin o'tda toblanar odam mehnatda“, „Mehnat bilan qarising, rahmat bilan yasharsan“, „Uzoq umr siri mehnatda“ kabi xalq maqollari bejiz aytilmagan.

Mehnat shaxsni har tomonlama kamol toptirishning asosiy omili hisoblanadi. Shuning uchun bolalarni juda kichik yoshidan boshlab mehnatga o'rgatish zarur. Ayniqsa mehnat tarbiyasini maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga o'rgatib borish zarur. Shu sababli biz bitiruv malakaviy ishi mavzusini O'rta gurux bolalarini o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish malakalarini shakllantirish" deb nomladik.

**Bitiru malakaviy ishining maqsadi:** Maktabgacha yoshdagi bolalarni o'z-o'ziga xizmat qilishga o'rgatishning ilmiy nazariy jihatdan organish.

**Bitiru malakaviy ishining vazifasii:**

-Maktabgacha yoshdagi bolalarni o'z-o'ziga xizmat qilishga o'rgatish yuzasidan mavjud adabiyotlarni o'rganib taxlil qilish.

-Maktabgacha yoshdagi bolalarni o'z-o'ziga xizmat qilishga o'rgatishning shakl va metodlarini ishlab chiqish;

-Maktabgacha yoshdagi bolalarni o'z-o'ziga xizmat qilishga o'rgatishda ilg'or ish uslublarini o'rganish;

**Bitiru malakaviy ishining ob'ekti:** Maktabgacha yoshdagi bolalarni o'z-o'ziga xizmat qilishga o'rgatish jarayoni.

**Bitiru malakaviy ishining predmeti:** Maktabgacha yoshdagi bolalarni o'z-o'ziga xizmat qilishga o'rgatishning shakl metodlari.

**Bitiruv malakaviy ishining metodlari:**

- Adabiyotlarni o'rganib tahlil qilish,
- pedagogik kuzatuv,
- so'rovnoma suhbat,
- pedagogik eksprement
- matematik tahlil.

**Bitiruv malakaviy ishining metodologik asosini** O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov o'zbek xalqi tarixi, ma'naviy merosini o'rganishga hamda ta'lim –tarbiya sohasini shuningdek, O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida” gi Qonuni, “kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ga, Sharq mutafakkirlarining mexnatsevarlik tuyg'ularini shakllantirish borasidagi falsafiy, ta'limiy –tarbiyaviy, maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatini taokmillashtirishga.

**Bitiru malakaviy ishining ilmiy yangiligi:**

-Maktabgacha yoshdagi bolalarni o'z-o'ziga xizmat qilishga o'rgatish yuzasidan mavjud adabiyotlarni o'rganib taxlil qilindi.

-Maktabgacha yoshdagi bolalarni o'z-o'ziga xizmat qilishga o'rgatishning shakl va metodlarini ishlab chiqildi;

-Maktabgacha yoshdagi bolalarni o'z-o'ziga xizmat qilishga o'rgatishda ilg'or ish uslublarini o'rganildi;

**Bitiru malakaviy ishining tuzilishi va hajmi:** kirish, ikki bob, umumiy xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati hamda ilova materiallaridan iborat.

# **1. BOB. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI MEXNATGA O'RGATISHNING ILMIY NAZARIY ASOSLARI**

## **1.1. Maktabgacha yoshdagi bolalarni mexnat tarbiyasi tarbiyasi xaqida sharq va g'arb mutafakkir olimlarinig fikrlari**

Mexnat ijtimoiy taraqqiyotning manbai, barcha moddiy va ma'naviy ehtiyojlarni qondirishning asosiy shart-sharoitidir, shu bilan birga inson xayotiy faoliyatining asosiy shaklidir, kishi xayotining mazmuni va xar bir jamiyat a'zosining vazifasi, shaxs taraqqiyotinig asosidir. Mexnat qadimdan jamiyatning axloqiy prinsipi xisoblanib kelingan.

Mexnat – faqat shaxsiy moddiy farovonlik manbaigina emas, balki xalqqa xizmat qilish, vatanimiz gullab yashnashi va uning qudratini oshirishning asosi xamdir.

Madaniyatli kishi mexnatsevar bo'lib etishadi. Mexnatni sevmaydigan va qadrlamaydigan odamdan madaniyatli kishi chiqmaydi. Insonning ongliligi va tarbiyalanganligi avvalo mexnatga bo'lgan munosabatida ko'rinadi.

Mexnat insonni uluqlaydi, go'zallikka chorlaydi. Mexnatsiz turmush mazmunsiz o'tadi. Mexnat qilmaydigan insonning xayoti zerikarlidir. U ma'naviy qashshoq, jismoniy zaif bo'ladi. Uzoq umr ko'rish siri xam mexnatdadir. Mexnat qilmasang, xatto buyuk estedod xam so'nadi, mexnat xar qobiliyatni rivojlantiradi. Terlab pishib qilingan mexnat erta xosil beradi, mexnatdan qobiliyat, qobiliyatdan estedod, undan esa daxolik paydo bo'ladi. Xammasining zamirida sidqidildan qilingan mexnat yotadi.

Mexnat baxt timsoli ekanligi xammaga ayon. Inson yaralgandan beri mexnat faoliyati bilan shuqullanib kelgan.

Inson xayotida mexnatning axamiyati xamma vaqt xam barcha xalqlarning eng asl farzandlari - mutafakkirlari, olimu fozillarining diqqat markazida bo'lgan.

O'tmishdagi istedadli shoir Abu Shukur Balxiyning mexnatni uluqlovchi quyidagi she'riy satrini keltirish mumkin:

*Orzu tilak yo'li mexnat tagida*

*Xazinaning mo'li mexnat tagida*

Tojik shoiri Nosir Xusrav inson mexnatining natijasini shunday ulug'laydi:

*Jaxonning shodligi boisi dexqon,*

*Uning birla ekinzor, bog'u bo'ston,*

*Bu ishdan yaxshi olamda na bordir,*

*Odam nasliga bu ishi yodgordir*

O'zbek shoirlari, yozuvchilari: Alisher Navoiy, Furqat, muqimiy, Xamza mexnatning insonni ma'naviy go'zallashtiruvchi roliga, mexnatsevarlikni tarbiyalashga va mexnat axlini qadrlashga katta o'rin beradilar.

Alisher Navoiy mexnat qilib yashash zarurligini shunday ifodalaydi:

*Bir diram olmoq chekibon dast ranj,*

*Yaxshiroq andinki birov bersa ganj.*

Azaldan mexnatkash, tinib tinchimas xalqimiz o'zining mexnati bilan bog'larni gulistonga, cho'lni bo'stonga aylantirib kelmoqdi. qadimda otabobolarimizning mexnat xaqida aytilgan dono naqlari xozirga qadar xam o'z qadrini yo'qotgani yo'q.

Masalan:

*Mexnat qilsang ko'ksing toq,*

*Xurmat qilsang beling bog'*

*Mexnatli non shakar*

*Mexnatsiz non zaxar*

*Mexnat baxt keltirar.*

*Mexnat qilib topganing*

*qandu asal totganing.*

Bu maqollar orqali dono xalqimiz mexnatni uluqlaydi. Uning samarasi xaqida fikr yuritadi.

O'zbek bolalar yozuvchi va shoirlari xam kattalar mexnatining mazmunini yoritib berganlar. Bunda q.Muxammadiyning “Etik”, “Bir xovuch yong'oq”, Q.Xikmatning “Suv” kabi sherlari misol bo'ladi.

Yuqorida aytganlarimizdan ko'rinib turibdiki, mexnat xar qanday moddiy va ma'naviy boyliklarning asosiy manbai shu bilan birga shaxsni xar tomonlama kamol toptirishning asosiy vositasidir. Mexnat jarayonida insoniy xislatlarning faol namoyon bo'lishi uchun eng qulay sharoitlar yaratadi va xar bir kishida ma'naviy qoniqish xosil qiladi.

Xar bir bola maktabgacha tarbiya yoshidan boshlab mexnatda ishtirok etishi zarur. Bolalar bog'chasida, oilada bajariladigan uncha murakkab bo'lmagan xar bir topshiriq uning kundalik vazifasiga aylanishi kerak.

Bola mexnatining axamiyati va moxiyatini tushunib etishishi uchun pedagog kattalarning mexnati, bolalarning o'zlari bajaradigan mexnat turlarini kuzatish yuzasidan ekskursiyalar uyushtiradi. Bolalar quruvchilarning mexnatini kuzatishyapti, deylik. Qurilish maydonchasiga katta-katta bloklar keltirilib, ular ko'tarma kran bilan tushuriladi. Keyin

bolalar g'isht teruvchilar, duradgorlar, suvoqchilar, tom yopuvchilar, bo'yoqchilar mexnatini kuzatadilar.

Bolalarning qurilish bilan tanishtirish davomida bilib olgan barcha tasavvur va tushunchalari, ularning ko'zi oldida ajoyib bino bunyod etgan kishilar mexnatining go'zalligi namoyon bo'ladi.

Mexnat bolalarning jismoniy, to'g'ri rivojlanishida zarur shartlardan biri xisoblanadi. Mexnatda bola o'zining ishlash, xarakat qilish ehtiyojini qondiradi, xarakatlarni aniq, uyqun bilishini ta'minlaydi. Mexnat jarayonida bola organizmining umumiy xayotiy faoliyati, uning chidamliligi ortadi.

Bolalarning turli xil mexnat jagayonlarida ishtirok etishlari, kattalar mexnati bilan tanishishlari ularning tevarak atrofdagi xayot xaqida, kishilarning o'zaro munosabatlari xaqida, narsalar va ularning xususiyatlari, materiallarga ishlov berish usullari xaqida, qurilmalar va asboblar to'g'risida muayyan tasavvurlarga ega bo'lishlariga yordam beradi.

Mexnat bolalardan diqqat, o'tkir zexnlilik, topqirlik, bilib olgan malaka va ko'nikmalarini amaliyotga qo'llay bilib, ijodkorlik qobiliyatlarini egallashni talab etadi. Mexnat jarayonida bolalar ayrim ish turlarini (bir varoq qoqozni buklash, kerakli uzunlikni o'lchash, andozaga qarab shaklni qirqib olish kabi xarakatlarni) anglatuvchi bir qancha tushunchalar va atamalardan foydalanishga, bajarilgan ishdagi izchillikni so'zlab berishga to'g'ri keladi. Bular bola nutqini yangi so'zlar bilan boyitadi, uning mantiqiy bog'liq ravishda grammatik jixatdan to'g'ri shakllanishiga yordam beradi.

Bolalarning eng oddiy mexnat qurollari, materiallarga ishlov berish usullari bilan tanishtirish kerak. Bog'chadagi mexnat ularni maktabdagi poletexnik ta'limga tayyorlaydi.

Mexnatning axloqiy qiymati uning jamiyat uchun qanchalik ahamiyatga ega ekanligi bilan belgilanadi. Mexnat xar bir bolani o'z mexnatining ijtimoiy ahamiyatini tushuntirib beradi, uning jamiyat xayotiga kirib borishiga, o'zini shu jamiyatning a'zosi deb xis qilishiga imkon yaratadi.

Xar bir bola oilada, bolalar mexnatida o'z ulushi borligini xis eta bilishi lozim. Ishni shu tarzda tashkil etilishi bolalarda jamoatchilik va intizomlilikni, burch xissini tarbiyalaydi. Shuning uchun bolalarni jamoa mexnatida tarbiyalash muxim ahamiyat kasb etadi.

Mexnatning bolalarni aqliy tomondan rivojlantirishdagi ahamiyati shundaki, mexnat jarayonida ular borliqni faol anglay boshlaydilar, dunyoni materialistik idrok etish imkoniyati yaratiladi. Bog'cha yoshidan boshlab bolalarga mexnat tarbiyasi berish ularni estetik va jismoniy jixatdan xam rivojlantiradi.

Maktabgacha tarbiya yoshi davrida bolalarning yoshi ulg'ayishi bilan mexnat sabablari xam o'zgarib boradi. Ya.Z.Nemerovich, L.E.Obrozchovlarning olib borgan ilmiy izlanishlari natijasi shuni ko'rsatadiki, bolalarni kattalar mexnati bilan tanishtirish orqali ular kattalardan mexnatning ijtimoiy sababini ancha erta o'zlashtirib olar ekanlar.

Lekin ular biron ishni mustaqil bajarganlaridagina o'z mexnatlari boshqalar uchun foydali ekanini ongli ravishda bilib oladilar. Masalan, onalar va buvilar uchun 8- martga sovg'a tayyorlash, kichik gurux bolalari maydonchasini yiqishtirishga yordamlashish, yirtilgan kitoblarni yamab berish, konsert va teatr qo'yib berish bolalarda mexnatning mauyan natijasiga intilish uyg'otadi, faoliyatning ijtimoiy sabablarini anglatib, mexnatga

xavasini, ishni bajarishga bolalarning o'z oldilariga qo'ygan talablarini oshiradi.

V.I.Loginovaning olib borgan ilmiy tadqiqot ishlarida ta'kidlanishicha, bolalarga mexnat tarbiyasi berish uchun ular mexnat va mexnat malakalari to'g'risidagi barcha sistemasini o'zlashtirib olishlari kerak ekan:

1. Mexnat maqsad qo'yish va uning natijasini belgilab olishdan boshlanadi: maqsad – mexnat tasviri
2. Mexnat qilishdan ko'zlangan maqsad bo'yicha kerakli materiallarni tanlab olish kerak
3. Materialni ishlash uchu kerakli asboblarni tanlab olish
4. Natijaga erishish uchun mexnat xarakterlarini bajarish. Bu sistemani quyidagi sxemada keltirish mumkin: maqsad, mexnatni tanlash, mexnat faoliyati – mexnat quroli, mexnat natijasi.

Mexnat tarbiyasi yosh avlodga tarbiya berishning tarkibiy qismidir. N.K.Krupskaya o'z asarlarida bolalarni ilk yoshidan boshlab eng oddiy, ular bajara oladigan mexnat turlariga o'rgatish zarurligini bir necha bor ta'kidlagan ekan, bu yo'l bilan ularning materiallarning xossalari bilan tanishishni, turli asboblarni ishlash usullarini o'rganishini ko'rsatib o'tgan edi. Mexnatda bolalar aktivligi, irodalilik, sabr matonat, natijaga erishish ishtiyoqini ko'rsatadilar. Ularga kattalarga qo'llaridan kelgancha yordam berish istagi paydo bo'ladi.

N.K.Krupskaya mexnatda bolalarning birlashishiga aloxida ahamiyat berar ekan, shunday deb ko'rsatgan edi: “Bolalarning birgalikdagi ishlarini ayniqsa qadrlash kerak. Bu kollektiv mexnat kurtaklaridir. Ana shu kollektiv mexnatda bolalarning kuch quvvati barq urib o'sadi”.

Shu bilan birga u pedagoglarni bolalarning imkoniyatlarini, bolalar mehnatining xususiyatlarini, uning o'ziga xosligini, o'yin bilan bog'liqligini xisobga olishga chaqiradi.

A.S.Makarenko mehnat tarbiyasi haqida fikrlarida bolalar bajaradigan eng oddiy maishiy mehnat turlarining muhim rol o'ynashini ochib berdi. Unda mustaqillik, ma'suliyat, o'zini-o'zi boshqarish, uyushtirish va ular axloqning biror maqsadga qaratilganligi shakllanadi. Mehnat qila biladigan bolalar mehnatda zo'r berib ahamiyatini biladilar, boshqa kishilar mehnatini xurmat qiladilar, yordamga ehtiyoj sezadigan kishilarga e'tibor beradilar.

N.K.Krupskaya kabi A.S.Makarenko ham bolalarning kollektiv mehnatiga alohida e'tibor berar edi. Bu mehnatda qatnashuvchilarning o'zaro bog'liqligi yuzaga keladi. Birgalikdagi mehnat qilish: kollektivdagi ishlar, kishilarning mehnatda bir biriga yordam berishi va ularning mehnatdagi doimiy o'zaro bog'liqliligina insonning bir biriga bo'ladigan to'g'ri munosabatini vujudga keltirishi mumkin, deb yozgan edi. U bu to'g'ri munosabat xar bir kishining o'z kuchini jamiyatga baxsh etishdan iborat bo'libgina qolmay, balki bu kishining boshqalardan ham shuni talab etishidan, o'z yonida tekintirishning yashashini istamasligidan ham iboratdir.

A.S.Makarenko asarlarida bolalar mehnatining mazmuni asta sekin murakkablashtirish, o'z o'zini uyushtirishga qo'yiladigan talablar darajasini oshirish bilan ular mehnatini tashkil etish haqida tavsiyalar berilib, ularning oilada doimiy mehnat vazifalari bo'lishi zarurligi ularning umumiy taraddudlarda ishtirok etishi qayd qilib o'tiladi.

Maktabgacha tarbiya pedagogikasida mexnat tarbiyasini N.K.Krupskaya va A.S.Makarenko asoslab bergan asosiy prinsiplarga amal qilib bolalarni mexnatda tarbiyalash yo'llari ishlab chiqildi.

## **1.2. Maktabgacha yoshdagi bolalar mehnatini tashkil etishning ahamiyati**

Yosh avlodga mehnat tarbiyasi berish masalasi hozirgi davrda eng dolzarb mavzu hisoblanadi. Mehnat xar bir kishi kamolotida va umuman jamiyat taraqqiyotida muxim ahamit kasb etadi. Bog'cha yoo'idagi bolalarni jismoniy, aqliy, axloqiy va estetik tomondan tarbiyalashda mehnat tarbiyasi muxim ahamiyatga egadir.

Mehnati xar bir yosh guruhidagi bolalarning o'ziga xos xususiyatlarini e'tiborga olib tashkil etiladi, unga to'g'ri raxbarlik qilgandagina yetarli natijaga erishish mumkin.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar mehnatining o'ziga xos tomonlari ko'pgina olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda keng o'rganib chiqilgan.

Bolalar mehnatining muxim belgisi uning ma'lum mehnatga qaratilganligidir. Kichik bog'cha yoshidagi bolalarning mehnati biron jarayonga oid xarakter bo'lib, u faqat kattalarning raxbarligi natijasidagina amalga oshirilishi mumkin.

Bola kubiklarni bir joydan ikkinchi joyga: mashinadan – stolga, stoldan – mashinaga ko'chiradi va xokazo. Tarbiyachi boshqa stol ustidagi kubiklarni ko'rsatib, uni mashinada shkaf ustiga olib borish kerakligini aytadi. Bola kubiklarni mashinasida shkafga tashiy boshlaydi va joyiga tartibli qilib qo'ya boshlaydi. “qatnov” bir necha marta takrorlanib, barcha kubiklar jryiga yiqishtirib qo'yiladi. Bolalar faoliyatida maqsad paydo bo'ladi. Keyingi galda bolaning o'zi o'ynayotgan o'rtoqlariga o'ynab bo'lgandan keyin o'yinchoqlarni mashinada joyiga olib borib qo'yishni aytadi.

Katta gurux bolalarida mustaqil maqsad qo'yish qobiliyati moddiy samara beradigan mexnat turlarida muvofaqqiyatli rivojlanadi: gulzorda, ekinzorda ishlash, o'yinchoqlar yasash va boshqalar.

Faoliyatni rejalashtirish mexnat tarbiyasining muxim tarkibiy qismi xisoblanadi. Bolalarni kuzatish ular faoliyatining tartibsiz, rejasiz ekanligini ko'rsatadi. Bolalar bunday xarakterlar orqali biror natijagi erishish uchun juda ko'p vaqt va kuch sarflaydilar, shu bilan bir vaqtda o'z ishlaridan o'zlari qoniqmaydilar.

Tarbiyachi bolalarni o'z faoliyatlarini taxminiy rejalashtirib olishlariga o'rgatish va ular faoliyatiga raxbarlik qilishi lozim. Shunday qilib, butun bog'cha yoshi davrida mexnat va o'yin o'zaro bog'liq xolda kechadi, biroq xar qanday xolda xam bolalar mexnatni o'yinga aylantirish, ularning farqini yo'qqa chiqarish noto'g'ri bo'lar edi. Tarbiyachilar va ota-onalar ta'sirida asta sekin bolalar mexnati o'z vazifasi mazmuni, metodi va tashkil etilishi bilan mustaqil faoliyat sifatida ajratib boriladi.

Mexnatda uning beradigan samarasi faoliyatning majburiy, tarkibiy qismi xisoblanadi. Ammo bolalar bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishda mexnat natijasiga bolalarda mexnatga xavas xissini tarbiyalash uchun yordam beradigan pedagogik omil deb qarash kerak.

Mexnatda natijaga erishishda, mexnat malakalarini shakllantirishda pedagogning va bolalar o'rtoqlarining baxosi va o'ziga-o'zi baxo berish katta ahamiyatga ega. Bolalar yasagan buyumlar o'yin va mashqulotlarda qo'llanilsa, ular o'zlari yasayotgan buyumlar yanada sifatli bo'lishiga intiladilar.

Shunday qilib, maktabgacha tarbiya yoshi davrida mehnat faoliyati shakllantiriladi. Pedagog raxbarligida mehnatning ijtimoiy sabablarini xamma muxim tomonlari shakllanadi. Kattalar mehnati va uning ijtimoiy ahamiyati to'g'risidagi bilimlar o'zlashtirib olinadi.

Maktabgacha tarbiya yoshi davrining o'ziga xos tomonlaridan yana biri bolalar mehnatining o'yin bilan bog'liqligidir.

O'yin jarayonidagi biron xarakter doimo biror mehnat jarayonini aks ettirishga yo'naltirilgan bo'ladi. Ikkinchi tomondan, mehnat jarayonini bajarishda uni o'yin shakliga aylantirishadi, masalan, barglarni zambillarda tashishadi, mashinalarda yurishadi.

Shu bilan birga o'zining xususiyati, mazmuni, yuzaga kelish sababiga ko'ra mehnat bilan o'yin bir-biridan farq qiladi. Mehnatda maqsad qo'yiladi, uni amalga oshirish, natijaga erishish uchun shart-sharoit yaratiladi, vositalar izlab topiladi. O'yinda esa bolalar kattalarning mehnat faoliyatiga taqlid qiladi. O'yinda mehnat singari biron aniq natijaga erishilmaydi, ammo u mehnat singari bolalarga quvonch baqishlaydi, ular o'zlarida qoniqish xissini sezadilar. O'yinda bola o'z o'ylaganini rivojlantirishi yetakchi rolni o'ynaydi, mehnatda esa natijaga erishish yo'lidagi mehnat xarakterlari, o'yin o'zining rivojlanishidagi har qanday bosqichda to'xtatilishi mumkin, mehnatda esa albatta ko'zlangan natijaga erishiladi.

Bolalarning mehnat faoliyati qachon va qanday qilib o'yindan ajratiladi? Kichik bog'cha yoshidagi bolalar mehnatining asosiy turi o'z-o'ziga xizmatdir. Bu kichik bolalar uchun ancha mashaqqatli ish. Shuning uchun bu yoshdagi bolalarni mehnatning bu turiga o'rgatishda ko'pincha o'yin vaziyatlaridan foydalaniladi("qo'qirchoqni sayrga otlantiramiz",

“qo’qirchoqni uxlatamiz” va shunga o’xshashlar). Avvaliga bolalar o’yin obrazi orqali mehnatga o’rgatiladi. Shu orqali bolalar ishonch bilan xarakat qilishni o’rganadilar.

Sekin-asta o’z-o’ziga xizmat qilish malaka, ko’nikmalari shakllanib boradi.

Mehnat qilish muntaam tarzda bo’lib unda hamma bolalar ishtirok etsa va kattalar mehnati bilan tanishtirib borilsa, u tarbiya vositasiga aylanadi.

## **2 BOB. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI O'Z-O'ZIGA MEHNAT QILISHGA O'RGATISHNING SHAKL LARI.**

### **2.1 Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalar mehnatini tashkil etish shakllari.**

Mehnat qilish muntazam tarzda bo'lib, unda hamma bolalar ishtirok etsa va kattalar mehnati bilan tanishtirib borilsa, u tarbiya vositasiga aylanadi.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar quyidagi mehnat turlariga jalb qilinadi: o'z –o'ziga xizmat qilish, xo'jalik –maishiy, mehnat, tabiat quchog'idagi mehnat va qo'l mehnati.

**O'z –o'ziga xizmat qilish.** Bu bolalar mehnatining bir turi bo'lib, unda bolalar ilk yoshidagi boshlab mustaqil ovqatlanishga, yuvinishga, kiyinish va yechinishga, o'yinchoqlarni yig'ishtirib qo'yishga o'rgatiladi. O'z –o'ziga xizmat qilish jarayonida bolalarda mustaqillik, ma'lum maqsad bilan harakat qilish kabi sifatlar shakllanadi, bolalar qo'llaridan kelgan ishni o'zlari bajarishga o'rganadilar. O'z –o'ziga xizmat bolalarda oddiy mehnat turlariga nisbatan qiziqish uyg'otadi, batartiblilikka, intizomli bo'lishga, xulq –odobga o'rgatadi.

**Bolalar xo'jalik –maishiy mehnatga** bolalar bog'chasida va oilada jalb etiladi. Uning mazmuni har xil bo'ladi: xona va bog'cha maydonchasini yig'ishtirish, stolni bezatish va stoldagi idish –tovoqlarni yig'ishtirish, choy idishlarini, qo'g'irchoq kiyimlarini, mayda narsalarni yuvish, mashg'ulotga kerakli materiallarni tayyorlab qo'yish, mashg'ulotdan keyin stol ustidagi narsalarni yig'ishtirib olish va h.k.

**Tabiatdagi mehnat** bolaning har tomonlama rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo'lib, o'simlik va hayvonlar, yil fasllari, jonsiz tabiat to'g'risidagi bilimlar manbai, bolalarda mehnatsevarlikni, tabiatga ehtiyotkorlik munosabatini tarbiyalash vositasidir shu bilan birga bolalar mehnatning bu turi orqali tuproqni ekishga tayyorlash va o'g'itlash, ko'chatni o'tqazish, o'simlik va hayvonlarni parvarish qilish kabi bir qancha muhnat malaka va ko'nikmalarini egallab oladilar. Mehnatning asosan ochiq havoda tashkil etilishi bolalar organizmini chiniqtiradi, ularning sog'lig'ini mustahkamlaydi.

**Qo'l mehnati** –mashg'ulot, o'yinlarga mehnat faoliyati uchun zarur bo'lgan o'yinchoq va qurilmalarni tayyorlash bo'yicha bolalar mehnatidir (qog'oz qiyqimlarini tashlash uchun, o'simliklar urug'i uchun qutichalar, qo'g'irchoq kiyimlari, qalpoqchalar, niqoblar va shunga o'xshash narsalar tayyorlash).

Qo'l mehnatini bajarish orqali bola natijaga erishadi –narsa, buyum vujudga keladi. Bolalar yopishtirish, bo'yash, qiqish, arralash, miz qoqishni, tikish va shunga o'xshash oddiy mehnat malaka va ko'nikmalarini egallab oladilar. Ularda ijodkorlik, topag'onlik, zehililik xislatlari o'sadi.

Bolalarda mehnat faoliyatini shakllantirish. Mehnat faoliyati –har xil mehnat jarayonlaridan tashkil topgan, har xil mehnat turlarini birlashtiruvchi keng tushunchadir. Mehnat jarayoni –mehnat faoliyatining o'ziga xos bir bo'lagi bo'lib, uning tarkibida esa mehnat faoliyatining hamma tarkibiy qismlari, mehnatning maqsadi, material va mehnat qurol aslahatlari, biron natijani yuzaga keltirish maqsadiga erishish uchun sarf qilingan barcha

mehnat harakatlari, mehnat sabablari va mehnat mahsuli yaqqol qo'zga tashlanadi.

Mehnat faoliyatini egallash –bu birinchi navbatda mehnat jarayonini uning tarkibiy qismlari bilan birgalikda egallab olishdir. Shunga qarab bolalarning mehnat tarbiyasi vazifalari belgilanadi va ular quyidagilardan iboratdir.

1. Bolalarni bo'lajak mehnat faoliyati oldidan maqsad qo'yishga o'rgatish

2. Mehnat jarayonini, mehnat faoliyatini eng oddiy rejalashtirib olishga o'rgatish.

3. O'z ish joyini tayyorlab olishga, mehnat madaniyatiga o'rgatish.

4. Mehnat malakasi va ko'nikmalarini o'rgatish.

5. bajarilgan mehnatning natijasi, sifati va ahamiyati, qancha vaqtda bajarilganligiga qarab o'zining va boshqalarning ishini to'g'ri baholashga o'rgatish.

6. Mehnat faoliyati sabablarini shakllantirish

7. Jamoa mehnat faoliyati vaqtida bolalarda ijobiy munosabatlarni shakllantirish.

**Maqsad qo'yish.** Maqsad qo'yish kattalar taklif etgan maqsadni qabul qilishdan boshlab to o'zi mustaqil maqsad qo'yadigan bo'lguncha rivojlanib boradi (o'simlikka suv qo'yishdan to uni o'stirguncha). Bolalarning o'z oldilariga maqsad qo'yib ish bajarishlarini rivojlantirish uchun quyidagilarga rioya qilish zarur:

- bolalar mehnat qilishdan ko'zlangan maqsadni tushunib yetishlari kerak (nima uchun u yoki bu ishni bajarishlari kerak, undan ko'zlangan natija nima?);
- kutilgan natijani rasm, qurilma va shunga o'xshashlar tarzida ko'rsatmali tasavvur eta bilish;
- ishning mo'ljallangan vaqtda bajarilishi;
- bolalar kuchi yetadigan ishlarni qilishi (masalan, ko'chat o'tqazish, o'simlikni sug'orish, ularni parvarish qilish va shunga o'xshashlar) kerak. Bola o'z mehnatidan ma'lum bir natijaga ega bo'lishni anglab yetgan taqdirdagina u mehnat faoliyatining maqsadini mustaqil belgilaydi va ishtiyoq bilan mehnat qiladi.

Mehnat malakalari va ko'nikmalarini egallab olish –maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar mehnat jarayonining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Agar bola mehnat harakatlarini bilmasa, u hiech qachon mehnat natijasiga erisha olmaydi. Bolalar mehnat malakalari va ko'nikmalarini egallab olganlaridagina mehnat jarayonini bajonidil bajaradilar. Masalan, tikishda ipni o'lchab kesib olish, ninaga o'tkazish, uchini tugish, tikish; o'yinchoq yasash uchun egish, bukish, taxlash, burchaklarini bukish, qirqish, tikish kabi mehnat harakatlarini egallab olishlari kerak bo'ladi. Bu ish harakatlarini ma'lum tartib bilan bajarish uchun har bir bola o'z mehnat faoliyatini rejalashtirib ola bilishi kerak.

Mehnat jarayonini rejalashtirish quyidagilarni o'z ichiga oladi: maqsad qo'yish, mehnat faoliyati uchun kerakli ish qurollarini tayyorlab olish, qaysi harakatlarni qaysi izchillikda bajarish kerakligini va undan kutilgan natijani aniqlab olish, ish joyini yig'ishtirib qo'yish.

Avvaliga mehnat faoliyatini rejalashtirib olishni bolalarga tarbiyachi o'rgatadi: mehnat maqsadini tushuntiradi, kerakli materiallarni, mehnat qurollarini tanlaydi va uni har bir bola oldiga tayyorlab beradi va bolalarga mehnat faoliyati jarayonini qanday tartibda bajarish kerakligini tushuntiradi.

O'rta va katta guruhlariga borganda bu harakatlarni mustaqil bajarishga o'rgatadi. Buning uchun bolalarga quyidagi savollar bilan murojaat qilib boradi:

1. Biz nima qilamiz?
2. Buning uchun nima qilishimiz kerak?
3. Ishimiz uchun nimalar –qanday materiallar, qanday ish qurollari kerak?
4. Bu material va ish qurollaridan foydalanish o'ng'ay bo'lishi uchun ularni ish o'rinimizda qanday joylashtirishimiz kerak?
5. Ishni nimadan boshlab, qanday davom ettirishimiz kerak? (savol mehnatning oddiy va murakkabligiga, mazmuniga qarab bir necha marta takrorlanishi mumkin).
6. Ishni qanday tugatamiz?

Mehnat faoliyatini rejalashtirib olishga o'rgatish mehnatni sifatli bajarishga va mehnat madaniyatiga o'rgatadi.

**Natija** – mehnat faoliyatining muhim tarkibiy qismi bo'lib, uni bolalar ongli ravishda anglab yetishlari kerak.

Natijaga erishish bolalarda mehnat qilish odatini, mehnatsevarlikni tarbiyalaydi, mehnat harakatlarini sifatli bajarishga o'rgatadi.

**Mehnatning sababi**, ya'ni bola nima uchun mehnat qilishini bilishi kerak. Bu quyidagi shart –sharoit ta'sirida rivojlanadi:

1. Bolalar mehnatdan keladagina natijani va uning ijtimoiy mohiyatini bilishlari kerak.
2. Bolalar yasagan buyumlardan bog'chada, oilada foydalanish kerak.
3. Bolalarning ijtimoiy –foydali mehnatini amaliy jihatdan tashkil etish.
4. Bolalar mehnatining natijasini, uning boshqa kishilar uchun foydasini baholash.

Shunday qilib, mehnat jarayonining undagi tarkibiy qismlar bilan egallab olinishi maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar mehnat faoliyatining boshlanishi hisoblanadi.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar mehnatining asosiy shakllari quyidagilardan iborat: o'z –o'ziga xizmat qilish, topshiriqni bajarish, yakka tartibdagi mehnat, navbatchilik, qo'l mehnati bo'yicha mashg'ulotlar, jamoa mehnati. O'z –o'ziga xizmat, topshiriqni bajarish, maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar mehnat faoliyatining boshlang'ich shakli hisoblanadi.

O'z –o'ziga xizmat qilish bolalar mehnatining shakli sifatida yosh guruhlarida tashkil etiladi. U kun tartibidagi uyqu va sayrdan oldin va keyingi jarayonlar: ovqatlanish, kiyinish va yechinish, kiyim va badanni toza tutish bilan uzviy bog'liqdir. (bu mavzu “Jismoniy tarbiya” bobida batafsilroq yoritilgan).

Yosh guruhlarida topshiriqdan foydalaniladi; u yakka tartibda va guruppaviy bo'lishi mumkin. Kichkina guruhlarda bolalarga uncha murakkab bo'lmagan va qisqa muddatli topshiriqlar beriladi: “O'yinchoqni, kitobni, stulni olib kel, o'rniga olib borib qo'y, tushki ovqat uchun stol ustiga

qoshiqlarni qo'yib chiq". Bunday topshiriqlarni ayrim bolalar guruhdan tashqari joylarda ham bajarishlari mumkin.

O'rta va katta guruhlardagi bolalarga beriladigan topshiriqlar ancha murakkab bo'lib, ular endi xonadan tashqarida bajarishga mo'ljallangan va ikkinchi bir kishiga murojaat qilish bilan bog'langan bo'ladi, masalan, boshqa guruhning tarbiyachisiga, enagaga, shifokorga, hamshiraga murojaat qilish va hokazo.

Bu guruhlarda topshiriqlar 2-3 boladan tashkil topgan kichik guruhlar tomonidan bajarilishi mumkin (o'yinchoqlarni yig'ishtirish, gullarga suv quyish, to'kilgan barglarni terib, tegishli joyga olib borib tashlash kabi).

Maktabgacha tayyorlov guruhida beriladigan topshiriqlar yana ham murakkablashadi. Bunday topshiriqlar endi javobgarlik va boshqa kishilarga mehribonlarcha munosabatda bo'lib hissini shakllantirish bilan bog'liq bo'lishi mumkin: kichkina guruh bolalarini sayrga chiqishdan oldin, uyqudan keyin kiyinishiga yordam berish; ularning stolini tushlik ovqatga tayyorlab berish, enagaga toza sochiqlarni osishga, toza choyshablarni olib kelishga yordamlashish va hokazo.

Topshiriq uzoq vaqt bajarilishi mumkin. Masalan, ma'lum bir gul yoki bir qancha gullar bir hafta davomida davomida parvarish kilinishi yoki bu ish yanada uzoqroq cho'zilishi mumkin (biror o'simlikni ekish va o'stirish).

Tarbiyachi Bolalarning topshiriqni bajarilishiga rahbarlik qilish bilan ham axloqiy, ham mehnat tarbiyasining muhim tomonlarini amalga oshiradi, mehnatda qatnashish istagini, o'rtoqlariga g'amxo'rlik va e'tibor bilan qarash ruhini singdiradi, bolalarni tengdoshlari va kattalar bilan o'zaro

xushmuomala bo'lishga odatlantiradi, topshirilgan ishda burch va javobgarlikni sezish hissini, natijaga erishishda sabotlilikni tarbiyalaydi.

Navbatchilik –bu jamoa uchun mo'ljallangan mehnat faoliyatining shakli bo'lib, u majburiy tartibda bajariladi. Bolalarning navbatchiligi ikkinchi kichik guruhda yil oxiridan (oshxonada) boshlanadi.

Barcha bolalarning mehnatda doimiy ishtirok etishlarini ta'minlash uchun navbatchilikning xilma –xil turlari uyushtiriladi: oshxonada (hamma yosh guruhlarida), mashg'ulotga tayyorlanishda (o'rta guruhdan boshlab), o'simlik va hayvonlarni parvarish qilishda (katta va maktabga tayyorlov guruhlarida).

Ikkinchi kichik guruhdagi bolalar oshxonada navbatchilik, qiladilar. Birdaniga 4-5 bola navbatchilik qilishi mumkin, har bir bola 1-2 stolni bezatadi. Katta va tayyorlov guruhlarida bolalarning vazifalari kengayadi. Nonushta va tushlik ovqatga, kech tushki va kechki ovqatga dasturxon tuzatish, ovqatlanib bo'lingandan keyin idish –tovoqni ovqat tarqatiladigan stolga yig'ishtirish, stollar ustini tozalab olish, enagaga choy idishlarini yuvishda yordam berish shular jumlasidandir. Bu yoshdagi bolalar ikkitadan navbatchilik qilishadi, ammo har bir bolaning ish hajmlari ko'payadi.

Mashg'ulotlarga tayyorgarlik bo'yicha navbatchilik qilish o'rta guruhda –bolalar oshxonada navbatchilik qilishni bilib olganlaridan keyin kiritiladi. Bu navbatchilar stol va stullarni, mashg'ulotga kerakli materiallarni, qo'llanmalarni mashg'ulotga tayyorlaydilar va xonani tartibga soladilar.

Katta guruhdan boshlab bolalar tabiat burchagida navbatchilik qila boshlaydilar. Navbatchilikning bu turi ham tarbiyaviy, ham ta'limiy ahamiyatga ega.

Navbatchilikning bu turida ham bolalar ikkitadan tayinlanadi: biri o'simliklarni parvarish qilsa, ikkinchisi jonivorlarga qaraydi. Ulardan qaysi biri bo'sh qolsa ikkinchisiga yordam beradi.

Navbatchilikning hamma turi yaxshi tashkil etilganda foydali bo'ladi. Navbatchilikni boshlashdan oldin "Biz navbatchilik qilamiz" degan mavzuda mashg'ulot o'tkazish mumkin. Masalan, tabiat burchagida navbatchilikni boshlashdan oldin tarbiyachi mashg'ulot o'tkazib, bolalarni tabiat burchagida nimalar borligi, o'simlik va hayvonlarni qanday parvarish qilish haqida suhbat o'tkazadi. Tarbiyachi tabiat burchagida yashovchilarni har kuni va to'g'ri boqish, o'simliklarni sug'orish va yuvish, qurigan shoxcha va barglarini qirqish kabilarga diqqatni jalb etadi, ish usullarini tushuntiradi.

Tarbiyachi bolalarni o'simlik va hayvonlarni kuzatishga, o'zgarishlarni aniqlab borishga, burchakdagi o'simlik va hayvonlarga g'amxo'rlik bilan munosabatda bo'lishga, ularda yuz beradigan o'zgarishlarni ko'ra bilish va ular to'g'risida so'zlab berishga o'rgatadi. Yozda navbatchilarga ertalab g'ulpushtalarni sug'orish, guldasta tuzash, gul solingan guldonlar suvini almashtirish topshiriladi.

Maktabga tayyorlov guruhi bolalari hayvonlarga ovqat berish vaqtini, miqdorini, ovqatni mustaqil bolalarning o'zlari qatnashsalar yana ham yaxshi bo'ladi.

Ba'zan navbatchilarning ish natijalari bolalarning uyga ketishlari oldidan muhokama qilinadi. Tarbiyachi bolalarga: bugun navbatchilar o'z

vaqtida keldimi? Ular hamma ishni qilishdimi? Nonushtaga, tushlik ovqatga stol to'g'ri tuzatildimi? Navbatchilar hamma narsani vaqtida bajarib, o'ynashga ham ulgurdilarmi? Kim yaxshiroq va chiroyliroq bajardi? –kabi savollar beradi va ular ishini baholaydi. Navbatchilar har kuni almashtirib turiladi, bu har bir bolaning navbatchilikning har xil turlarida qatnashishiga va turli mehnat malakalarini egallab olishiga imkon yaratadi.

Navbatchilik ishlari bolalarning sog'lig'iga zarar yetkazmaydigan (suyuq ovqatlarni, choyni bolalar tarqatmaydilar, og'ir narsalarni bolalar ko'tarmaydilar va hokazo) qilib tashkil etilishi kerak. Navbatchilik uchun hamma kerakli jihozlar bo'lishi lozim, bolalar ulardan mustaqil, ehtiyotlik bilan foydalanishga, ishdan keyin joyiga yig'ishtirib qo'yishga o'rgatiladi.

Ayniqsa navbatchilarni guruhlashga e'tibor berish juda muhimdir: passiv bolalarni faolroqlari biln, navbatchilikni endi bolagan bolalarni tajribali bolalar bilan birga tayinlash kerak. Lekin bunda faol bolalarning passiv bolalar ishini bajarishlariga yo'l qo'ymaslik darkor. Navbatchilarni tanlash va tayinlash har xil bo'lishi mumkin: bolalarning xohishiga qarab stollar bo'yicha, ro'yxat bo'yicha, sekin –asta navbatchlik galini bolalar o'zlari eslab qoladilar va shu tartib bilan borishini nazorat qilib boradilar.

Navbatchilarning borligi boshqa bolalar hamma ishdan ozod bo'lishini bildirmaydi, ovqatni yeb bo'lgan har bir bola o'zining idishini stolni o'rtasiga taxlab qo'yadi, salfetkani ham ma'lum joyga qo'yishadi, stol joyiga surib qo'yiladi. Navbatchilar idishlarni maxsus tarqatish stoli ustiga olib borib qo'yishadi, stol ustidagi uvoqlarni maxsus cho'tka bilan idishga yig'ib olishadi. Mashg'ultdan keyin ham shu hol takrorlanadi; har bir bola o'zining qadamini qalamdonga solib qo'yadi, o'z mo'yqalamlarini yuvib, qiyqimlarni

yig'ishtirib qo'yishadi va h.k. Eng muhimi –bolalarda o'zaro mehr – muhabbatni tarbiyalash, bir –biridan qo'lidan kelgan yordamini ayamaslikka o'rgatish kerak. Bularning hammasiga tarbiyachi rahbarlik qiladi.

Bolalarning mehnat tarbiyasini tashkil etish shakllaridan yana biri qo'l mehnati bo'yicha mashg'ulotdir. Bilim va malaka birinchi marta berilayotgan bo'lsa va u tushuntirish hamda barcha bolalarga yaqqol, ko'rgazmali qilib ko'rsatishni talab etgan hollarda ana shunday mashg'ulotlar o'tkaziladi.

Bolalarning jamoa mehnati daslabki jamoachilik asoslarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Jamoa mehnatida birgalikda harakat qilish, o'zaro yordam, shu bilan birga mehnat taqsimoti ham mujassamlashgan bo'ladi. Bunda mehnat yutuqlaridan birgalikda quvonadilar, ish yaxshi chiqmasa birgalikda qayg'uradilar.

Mehnatda bolalarning birlashishlari tarbiyaviy vazifaga qarab har xil shaklda bo'ladi. “Yonma –yon mehnat” da hamma bolalar bitta ishni bajaradilar, ammo har bittasi o'sha umumiy ishning bir qismini bajaradi (bittasi mo'yqalamlarni yig'ishtiradi, boshqasi bo'yoqlarni va h.k.). ishning bunday tashkil etilishi bolalarni mehnat malakalariga o'rgatishda ham, ularning ishini nazorat qilib turishda ham o'ng'aylik tug'diradi.

“Umumiy mehnat” da har bir bola o'z ishini bajaradi, ammo oxirida hamma qatnashuvchilar mehnati umumlashtiriladi (har bir bola xamirdan uzib olib pechenye yasaydi va u bitta idishga solib pishirishga qo'yiladi, pishgandan keyin bitta idishga solib boalar mehmon qilinadi). Yoki hamma bolalar guruh xonasini yig'ishtirishadi –har bir bola biron ishni bajaradi, yig'ishtirib bo'lingach, natija bitta qilib yakunlanadi (“Hamma yaxshi ishladi, shuning uchun guruh xonasi toza, saranjom-sarishta, chiroyli bo'lib qoldi”).

Birgalikdagi mehnat quyidagicha tashkil etilishi mumkin: masalan, xonani yig'ishtirishda bolalarning bittasi o'yinchoqlarni yuvadi, ikkinchisi artadi, uchinchisi o'yinchoq polkasini tozalaydi va unga o'yinchoqlarni teradi. Yoki tabiatdagi mehnatda bittasi tuvaklarga qum va tuproqlarni soladi, ikkinchisi urug' yoki ko'chatni o'tqazadi, uchinchisi joyiga olib borib qo'yadi. Bu yerda bolalarning ish harakatida o'zaro mutanosiblik bo'lishi, ya'ni har bir bola bir xilda chaqqonlik bilan harakat qilishi kerak, buning natijasida ma'lum mehnat munochabatlari yuzaga keladi. Bunday vaziyatda tarbiyachining bolalar o'rtasida to'g'ri munosabat o'rnatishga qaratilgan bevosita rahbarligi zarur.

Bunday rahbarlik, ma'lum izchillikda amalga oshiriladi.

## **2.2. Bolalarni o'z-o'ziga xizmat qilishga o'rgatishda tarbiyachi faoliyati hamda oilaning o'rnini o'rganish.(tajriba sinov ishlari)**

Tajriba sinov ishlarimizning bosh maqsadidan mantiqan kelib chiqadigan ustivor maqsad –mustaqil taraqqiyot yo'lidagi O'zbekiston kelajagi bo'lgan bolalarni o'z-o'ziga xizmat qilishga ya'ni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash va bunda tarbiyachi pedagoglarni va oilaning tutgan o'rnini oshirish, mustahkamlash va shu orqali Vatan ravnaqi, xalq farovonligi va osoyishtaligiga xizmat qilishdir.

Bolalarni o'z-o'ziga xizmat qilishga ya'ni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashda tarbiyachi va ota –onalarning ibrat namunasi g'oyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Oilada ota –onalar yoki keksa avlod vakillari tomonidan bolalarni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash yosh avlodning har tomonlama rivojlanishida katta rol o'ynaydi.

Bolalar tarbiyasida doimiy tarbiyaviy, ta'sirchan kuch –oilaviy tartib ya'ni oila a'zolarining bir –biriga munosabati, ota –ona va boshqa katta kishilarning xulq atvori, madaniy va ijtimoiy saviyasi, oila byudjeti, yashash sharoiti va hokazolarning maromidir.

Oila qanchalik tartibli, uning a'zolari o'rtasidagi munosabatlar samimiy bo'lsa, oiladagi mehnat taqsimoti to'g'ri yo'lga qo'yilgan bo'lsa –bolani mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash darajasi ham shunchalik yuqori bo'ladi.

Bolani o'z-o'ziga xizmat qilishga ya'ni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashda maktabgacha ta'lim muassasalarida va oilada mehnat tarbiyasi,berish bolalarni uy yumushlariga ilk yoshliklaridanoq to'g'ri jalb etish bunda ularning yosh jins va individual psixologik xususiyatlarini

inobatga olishni nazarda tutadi. Bolaning ilk mehnat tajribasi (kiyimini o'zi kiyishi) o'rin –ko'rparasini yig'ishtirishi, idishtovoq yuvish, gulga suv quyish va hokazolar) kelgusida uning mehnat faoliyati samarali bo'lishiga asos bo'ladi va uni murakkabroq vazifalarga undaydi.

Har bir ota –ona o'z farzandiga e'tiborli bo'lsa albatta ko'nglidan nima kechayotganligini biladi. sababiga qiziqadi yordam beradi, goh shirinso'z, goh maslahati bilan bolaga yo'l ko'rsatadi.

Gap bolalarni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash to'g'risida borar ekan, avvalo ularni tarbiyalovchi ota –onaning o'zi tarbiyalanganmi, avvalo shunga e'tiborimizni qaratishimiz zarur. Ayrim yosh ota –onalarimiz o'z farzandlari oldidagi vazifalarini unutib qo'yadilar. Atrofga qarasaq yosh otalarning farzandlar oldida katta avlod vakillariga behurmatlik qilib, aytgan ishlarini qilmaslik, holatlari ham afsuski uchrab turibdi. Ota –ona o'sib kelayotgan avlod bolalar uchun dorilfunundir. Axir ular ota –onalaridan o'rnak oladilar. Farzandi ko'ngildagidek bo'lib o'sishini, komil inson bo'lib, halqqa xizmat qilishini istagan har bir ota –ona o'ziga farzandi oldidagi burchimni bajarilyapmanmi? Degan savolga javob berishini odattusiga kiritishini istar edik.

Ijtimoiy tarbiyaning roli va imkoniyatlari qanchalik o'sib borgan sari, bolani mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashda oilaviy tarbiya zarur va uni boshqasi bilan almashtirib bo'lmaydi. Bolalik bu insonning hissiyoti, ko'nikmasi, xulq –atvori, didlarining shakllanish davridir. Xuddi shu davrda uning indiviudal xususiyatlari, harakter bilgilar, axloqiy irodaviy tomonlari paydo bo'la boshlaydi, tilga ega bo'lib nutqi paydo bo'lishi bilan bola kishilik tajribasini o'stira boshlaydi. Psixologlarning fikricha bola uch

yoshgacha bo'lgan davrda otadan merosi qolgan tomonlarni amalga oshira boshlaydi. Shuning uchun ham bu merosning ijtimoiy qiymatga ega bo'lishi juda muhimdir.

Bolalar tarbiyasi –uni mehnatsevrlik ruhida tarbiyalash ijodiy jarayon. Bolalar bilan birgalikdagi hayot bu haqiqiy san'at bo'lib, doimo uni takomillashtirib borilsa har qanday san'at kabi ota –onaga quvonch bahsh etadi. Shuningdek, bolalar bilan birga bo'lish, faqatgina quvonch emas, ma'naviy kamolotni manbai hamdir. Farzandlari bilan muomala qilish ular hayotini yangi ma'no va mazmun bilan boyitadi, yanada rang –barang qiladi. Shak –shubhasizki qarzandli bo'lish, bolalar bilan birga va ular uchun hamxo'rlik qilishdik psixologik jarayonni, ehtiyojni hamma ham tushunib yeta bilmaydi. Biz bolalarni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashda oilaning o'rnini o'rganish yuzasidan kuzatuv va tadqiqot ishglarimizni Jizzax shahar №3-sonli “G'uncha” nomli maktabgacha ta'lim muassasasining tarbiyalanuvchilari va ota-onalari o'rtasida olib bordik .

Tajriba –sinovdagi maktabgacha ta'lim muassasasida quyidagi ish shakllarini amalga oshirdik, uyushtirdik:

- Suhbat;
- Qahramonlar bilan uchrashuvlar;
- Anketa –test so'rovlari o'tkazdik.

Bolalarni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash haqidagi bilimlarini aniqlash uchun ota –onalarga qquyidagi savollar bilan murojaat qildik:

1. Siz bolangizga mehnatsevarlik haqida nimalarni o'rgatdingiz?
2. Mehnatsevarlik nima?

3. Mehnatsevarlik bilan mehnat o'rtasida qanday farq bor deb o'ylaysiz?
4. Bolalaringiz bilan mehnat rejalarini tuzib chiqasizmi? Qanday qilib?
5. Bolangizga mehnat qahramonlari haqida kimlarni, qanday ma'lumotlarni ayta olasiz.
6. Bolangizni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash uchun nimalar qilish va qanday ish olib borish kerak deb o'ylaysiz?
7. Oilada mehnat taqsimotini qanday yo'lga qo'ygansiz?
8. Bolangizga kun tartibi joriy qilanmisiz? Agar shunday bo'lsa buni ahamiyati nimada deb o'ylaysiz?
9. Oilada, dasturxon atrofida bolalaringizga mehnatsevarlik to'g'risida qanday hikoya, ertak, rivoyatlar aytib bera olasiz?
10. Bolangizni qanday ro'zg'or yumushlariga jalb qilasiz? Unga og'irlik qilmaydimi?
11. Bolaningzni muntazam bajarib boradigan ro'zg'or yumushini ayting va siz buni qanday nazorat qilasiz?
12. Mehnat ko'nikmalaridan qaysilarini bolangiz mustaqil bajara oladi deb o'ylaysiz?
13. Bolangiz ko'proq qaysi faoliyat bilan shug'ullanishi kerak deb o'ylaysiz. 1. O'yin, 2. Mehnat, 3. O'qish asoslab bering.
14. Mahallada o'tkazilgan xayriya hasharlarida ishtirok etasizmi? Bunga bolangizni munosabati qanday.
15. Bolangiz tarbiyasida mehnatsevarlik to'g'risidagi qanday maqollardan foydalansiz?

Dastlabki tajriba ishida ota –onalarning “Bolalarni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash” haqidagi tushunchalari va uni amalga oshirishdagi tajribalarini o’rgandik bunda muassasa pedagogi bilan birgalikda 20 ta ota –ona ishtirok etishdi.

Anketalarga quyidagicha javob oldik? “Bolangizga mehnasevarlik to’g’risida nimalarni o’rgatingiz? Savolga 17 ta ijobiy to’g’ri javob, 2 ta yaxshi va bitta qoniqarli javob, “Mehnatsevarlik” tushunchasining mazmuni haqidagi savolga 16 ta to’g’ri javob. Bolani mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash uchun qanday ish olib borish kerakligi haqida 12 ta to’g’ri javob, oilangizda mehnat taqsimotini qanday yo’lga qo’ygansiz savoliga 16 ta ijobiy javob. Bolangiz ko’proq qaysi faoliyat turi bilan shug’ullanishi kerak deb o’ylaysiz? Savoliga 14 ta to’g’ri to’g’ri javob. Bolangiz tarbiyasida qanday mehnatsevarlik to’g’risidagi maqollardan foydalanasiz? Savoliga 17 ta to’g’ri javob Mahallada, bayram tadbirlarda o’tkaziladigan xayriya xasharlarida ishtirok etasizmi? Savoliga atigi 12 ta “Ha” javobi. Yuqoridagi javoblardan ko’rinib turibdiki, bolani mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash to’g’risida ota –onalar yetarli bilimga ega bo’lsada, yetarlicha ma’suliyat bilan bu ishga yondashmaydi. Shuni ta’kidlash lozimki 27 maktabgacha ta’lim muassasasida ota –onalar bilan qayta o’tkazilgan tadqiqot mazmuni 85 foiz yuqori. Chunki bu yerda maktabgacha ta’lim muassasasi rahbariyati bilan ota –onalar uchun tashkil etilgan suhbatimizda ota –onalarga kerakli xulosa, taklif va tavsiyalar berilganligi, ota –onalarni mehnatsevarlik to’g’risidagi hamda faollashtirilib, ijobiy tomonga o’zgarganligi yaxshi natija berdi.

Ota –onalar bilan o’tkazilgan suhbatda bolalarni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashning xususiyatlari, aksincha bu jarayonga beparvalikning achinarli

oqibatlari –hayotiy misollar orqali ko'rsatib berildi. Bolalarni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashda qo'l keluvchi usullar bilan tanishtirildi.

Jumladan, bolalarni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashda;

- Xalq og'zaki ijodining boy namunalari hikoyat va ertaklar va she'r, qo'shiq maqollar orqali bolalarga ijobiy tarbiyaviy ta'sir o'tkazish.

- Bolalarni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashda hadis namunalaridan foydalanish;

- Oila va bolalar uchun ota –onalar tomonidan kun tartibi o'rnatish;

- Oilada mehnat taqsimotini to'g'ri yo'lga qo'yish;

- Bolalarda mehnatga munosabatni to'g'ri yo'lga qo'yish;

- Bolalarni mehnatga jalb qilish va ularni qo'llab –quvvatlash shakl va usullari bayon qilindi.

Bundan so'ng o'rtacha “Bolalarni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashda tarbiyachi pedagoglar va oilaning o'rnini oshirish” uchun nimalar qilishi kerakligi to'g'risida savol tashlanib, ota –onalarning mustaqil fikrlari tinglandi. Xulosalar shuni ko'rsatdiki ota –onalar o'tkazilgan tadbirlar orqali o'zlari uchun kerakli bilimlarga ega bo'ldilar.

## XULOSA

Bolalarga to'g'ri mehnat tarbiyasi berish uchun bog'cha bilan oila o'zaro hamkorlikda ish olib borishlari zarur. Majlislar, adabiy –pedagogik kechalar, savol –javob kechalari .mehnat tarbiyasining har xil masalalari bo'yicha ota –onalar konferensiyalari, ko'rgazmalar, stendlar tashkil etiladi. Ota –onalar uchun eslatmalar chiqariladi. Ilg'or tajribalarni o'rganib, umumlashtirib boriladi.Mehnat tarbiyasi masalalari bog'chaning yillik rejasida aks ettiriladi va tarbiyachilarga mehnat tarbiyasini to'g'ri rejalashtirish va amalga oshirilishda yordam beradi.

Bolalar bog'chasida mehnat tarbiyasini to'g'ri tashkil etish va unga rahbarlik qilish yosh avlodni har tomonlama tarbiyalash vazifalarini amlaga oshirishga yordam beradi.

Bizga ma'lumki, mexnat shaxsni xar tomonlama kamol toptirishning asosiy omili xisoblanadi. Shuning uchun bolalarni juda kichik yoshidan boshlab mexnatga o'rgatish zarur. Bundan tashqari mexnat tarbiyasi masalasi ma'rifatparvarlar va mutafakkirlar ijodida xam xamisha asosiy o'rin tutgan. O'zbek ma'rifatparvarlarining taniqli namoyondalaridan biri Abdullar Avloniy yoshlarni biror kasb bilan mashqul bo'lishi birinchi galdagi muxim ish deb xisoblaydi. U “Turkiy Guliston yoxud axloq” asarida dangasalik va yalqovlikni qoralab, insonlarni mexnatga da'vat etgan. Bolalarni xunar o'rganishga chaqirib, kishilarni biror kasb bilan shuqullanishga undagan.

Maktabgacha tarbiya muassasalarida mexnat tarbiyasining maqsadi bolalarga xar tomonlama rivojlantirish, axloqliqilib tarbiyalash kelajakdagi mexnat faoliyatiga ruxiy jixatdan tarbiyalash, bolalarga mexnat qilish xoxishini singdirib borishdir.

Mexnat qilish muntazam tarzda bo'lib, unda xamma bolalar ishtirok etsa va kattalar mexnati bilan tanishtirib borilsa, u tarbiya vositasiga aylanib boradi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar quyidagi mexnat turlariga jalb qilinadi: o'z-o'ziga mexnat qilish, xo'jalik maishiy mexnat, tabiat quchoqidagi mexnat va qo'l mexnati. Shu mexnat turlari asosida mexnat malaka va ko'nikmalari shakllantiriladi. Mexnat malaka va ko'nikmalarini egallab olish maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar mexnat jarayonining muxim tarkibiy qismi xisoblanadi. Agar bola mexnat xarakatlarini bilmasa, u xech qachon mexnat natijasiga erisha olmaydi. Bolalar mexnat malaka va ko'nikmalarini egallab olganlaridagina mexnat jarayonini bajonidil bajaradi va mexnat faoliyatida qatnashishga kirishadi. Masalan, o'z-o'ziga xizmat qilishda bolalar nonushta qilib bo'lganlaridan so'ng idishlarni o'zlari yuviladigan joyga olib borib qo'yishi yoki bo'lmasa xonada tozalik ishlarini olib borishda tarbiyachilarga yordamlashib gullarga suv quyishi, changlarni artishga yordamlashishi kabilarni misol qilib keltirish mumkin. Mana shunday mexnat malakalari shakllanib boshlaganda bolalarda mexnatni rejalashtirish, mexnatda maqsadl qo'yish, mexnat qurollarini tanlashga va mexnatni sifatli amalga oshirishga o'rgatiladi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga mexnat tarbiyasini o'rgatib borish bilan birga ularda yalqovlik fazilatlarining yo'qolishiga va ijobiy fazilatlar ochilishiga yo'l ochib beradi. Bolalar mexnat to'qrisida ma'lumotlarga ega bo'ladi. Shu asosida bola aqlik, axloqiy, jismoniy va ma'nan jixatdan yuksaladi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga mexnat o'rgatib borish bilan birga

- jismonan chiniqadi
- aqliy va axloqiy sifatlar rivojlanadi
- mexnat qilishga o'rganadi
- boshqalar mexnatini qadrlashga o'rganadi
- mexnat asosida komil inson tarbiyalanadi

Maktabgacha yoshdagi bolalarni mehnatga o'g'atishning nazariy asoslarini bolalarga bera olish pedagogikaning muhim masalalaridan biri hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar mehnati to'g'risida juda ko'plab olimlar amalyotchi pedagoglardan Texeyeva, Makezenko, Ya.Z. Neverovich, Loginova, V.A. Garbacheva, Yu.A. Nevelshteyn, I.P. Pavlov va boshqalar tadqiqot ishlarini olib bordilar.

Mehnat turlarining bolalarda mehnatsevarlik xislatlarini tarkib toptirishda ahamiyati juda katta. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni mehnatga o'g'atish asosida aqliy ahloqiy fazilatlar va bola jismonan baquvat manan yetuk komil inson bo'lib shakillanadi. Inson o'zining bolalik davridan boshlab mehnat qilishga o'rgatib, o'ziga yoqqan kasbni egallab borishi va kelajakda mehnatsevar inson bo'lib yetishmoq uchun harakat qilishi kerak. El-yurt orasida o'z kasbining mohir ustasi bo'lgan, qo'lida guldek hunari bo'lgan kishilarni odamlar ezozlab, hurmat qiladilar.

Yaxshi inson haqida hayol qilganimizda, mehnat hayotining eng zarur ehtiyojiga aylangan kishi ko'z oldimizga keladi. Har kuni, har daqiqa mehnat burchini kamtarlik bilan, kerilmasdan, maqtanmasdan vaqtni bekor o'tkazmasdan bajarib kelgan odam chinakam yaxshi insondir. Xulosa qilib aytish joizki maktabgacha yoshdagi bolalarni mehnatga o'rgatib borish ularda yalqovlik fazilatlarining yo'qolishiga va ijobiy munosabatlarning tarbiyalanishiga hammda hayotda har bir insonning mehnatining qadriga yetishga va uni ardoqlashga va keyinchalik hayotda qoqilmasliklari uchun muhim zamin yaratib barish darkor.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. I.A.Karimov „Yuksak manaviyat yengilmas kuch “ Toshkent 2008
2. I.A . Karimov „ Barkamol avlod yili davlat dasturi “ Toshkent 2010
3. I.A. Karimov „ Asosiy vazifamiz taraqqiyot va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdiz “ Toshkent O’zbekiston 2010
4. Bolalr bog’chalari uchun dasturlat . Toshkent 1992
- 5.Avloniy .A „ Turkiy guliston yoxud axloq’’ Toshkent O’qituvchi 1992
6. Yusupova G. Maktabgacha tarbiya pedagogikasi . Toshkent O’qituvchi 1993
7. Logipova .V .I Maktabgacha tarbiya pedagogikasi . Toshkent O’qituvchi 1992
8. Yusuf Xos Hojib . Qutadg’u bilig . Toshkent . Yulduzcha 1989
9. Yusupov .I . Ismoilov F Inson barkamolligi . Toshkent 1989
10. Yo’ldoshov J . Talimimiz istiqlolli yo’lida . Toshkent Sharq 1996
11. Halq talimi jo’rnali 2004, 3son
- 12.Hoshimova K . Nishonova N . Pedagpika tarixi Tosh. O’qituvchi 1994
- 13.Xasanboeva O. Tarbiyaviy ishlarni tashkel qilish metodikasi .Toshkent 1996
- 14.Daminova M .Adamkekova T .O’yin mashg’ulotlari Tosh.O’ qituvchi 1993
- 15.Godina G .N Maktabgacha kichik yoshdagi bolalarga talim tarbiya berish.Tosh 1989
- 16.Halq talimi jurnali 2001 ,3 son
- 17.Oila pedagogikasi Toshkent aloqachi 2007
- 18.Bolalar bog’chasida tarbiyachi pragrammasiga oid metodik ko’rsatmalar Toshkent 1967
19. Pedagogika J. Xasanbaev, X.A.To’raqulov, I.Sh, Avqarov, N.U. Usmonov. T. Noshir 2011
20. Loginova MAktabgacha tarbiya pedagogikasi 1993
21. “Bolajon” tayanch dasturi 2008
22. Pedagogika R.Mavlonov, O.To’raeva, K.Xoliqberdiev O’qituvchi T. 2010

23. Tarbiyachi bolalarning rivojlanishi xaqida. A,A. Lublnsnaya T.O'qituvchi 1997

**Internet saytlari:**

1. [www.press-servis/ .uz](http://www.press-servis/.uz).
2. [www. Gov.uz](http://www.Gov.uz).
3. [www. Iscs.uz](http://www.Iscs.uz)
4. [www. Edu.uz](http://www.Edu.uz).
5. [www. Ziyo net. Uz](http://www.Ziyo.net.Uz)
6. [www/pedagog/uz](http://www/pedagog/uz)